QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
QDTU

INNOVATSION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026
№11

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar Crossref OpenAIRE CYBERLENIKA

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

11-jild
11-son
Noyabr, 2026

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and practical journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

globalsciencehub.uz

Muassis:
Qarshi davlat texnika universiteti
Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:
+998 (75) 221 09 23
+998 (93) 902 72 63
Faks: +998 (75) 221 1395
innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)
Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)
Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)
Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)
Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)
Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)
Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)
Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do'stligi universiteti)
Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)
Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)
Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)
Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)
Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do'stligi universiteti)
Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)
Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)
Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a’zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor
Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor
Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor
Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor
Shoxujayeva Zebo Safoyevna i.f.d., professor
Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor
Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent
Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent
Ubaydullayev G‘ayrat Zuvaytovich -i.f.n., dotsent
Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent
Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent
Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Xo‘janova Gulshoda Otamurodovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)
Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)
Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent
Safarov Farhod Anvarovich - i.f.d., dotsent

ИННОВАТSIОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

globalsciencehub.uz

Учредитель:
Каршинский государственный технический университет
Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:
180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23
+998 (93) 902 72 63
Факс: +998 (75) 221 1395
E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчиников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)
Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)
Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)
Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)
Кусаинов Халел Хаймуллиевич - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)
Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)
Гибадуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)
Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)
Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)
Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)
Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)
Перская Виктория Вадимовна – д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)
Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)
Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)
Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)
Незамайкин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГГУ)
Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)
Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)
Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)
Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидахрор Саидахмедович – д.э.н., профессор, академик
Пардаев Мамаюнус Каршибоевич – д.э.н., профессор
Навруз-заде Бахтиёр Негматович – д.э.н., профессор
Хатамов Очилди Курбонович – д.э.н., профессор
Файзиева Ширин Шодмоновна – к.э.н., профессор
Жумаева Гулрух Журакуловна – к.э.н., профессор
Шохужаева Зебо Сафоевна – д.э.н., профессор
Эгамбердиева Салима Раимовна – к.э.н., доцент
Эркаева Гулбахор Панжиевна – к.э.н., профессор
Якубова Шамшинур Шухратовна – д.э.н. (DSc), доцент
Амиркулов Шухрат Олимович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Самиева Гулноза Тохировна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Убайдуллаев Гайрат Зувайтович – к.э.н., доцент
Ходжакулова Нигора Рустамовна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Туробов Шерзод Алишерович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Алимова Муниса Юлчиевна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Эргашева Насиба Рахматуллаевна – д.э.н. (DSc), доцент
Бобокулов Санжар Бахромкулович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Джалилов Рахмонкул Хамидович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Номазов Бахром Бобомуродович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Алимханова Нигора Алимхановна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Жонузоков Мирзабек Кулмаматович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Ходжанова Гулшода Отамуродовна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Турсунова Азиза Хошимовна – д.ф.э.н. (PhD)
Холлиев Шерали Бахтиёрович – д.ф.э.н. (PhD)
Панжиев Самижон Аликулович – PhD, доцент
Сафаров Фарход Анварович – д.э.н., доцент

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.11.11.2026.4 *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik*

AYOLLAR TADBIRKORLIGI RIVOJLANISHINING HUDUDIY IJTIMOIY-IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRINI KO'P OMILLI BAHOLASH MODELI

Bekmurodova Saodat Ikromovna

МНОГОФАКТОРНАЯ МОДЕЛЬ ОЦЕНКИ ВЛИЯНИЯ РАЗВИТИЯ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА НА РЕГИОНАЛЬНУЮ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЭФФЕКТИВНОСТЬ

Бекмуродова Саодат Икромовна

A MULTI-FACTOR ASSESSMENT MODEL OF THE IMPACT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT ON REGIONAL SOCIO-ECONOMIC EFFICIENCY

Bekmurodova Saodat Ikromovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ayollar tadbirkorligining tutgan o'rni va mazkur faoliyatning hududiy samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotning asosiy e'tibori ayollar tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy faollikni oshirish, bandlik imkoniyatlarini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini shakllantirish va aholi daromadlarini ko'paytirishdagi ahamiyatini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot jarayonida hududiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni shakllantiruvchi omillar o'zaro bog'liqlik nuqtayi nazaridan guruhlangan hamda ayollar tadbirkorligining rivojlanish holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar asosida ko'p omilli baholash yondashuvi ishlab chiqilgan. Bunda tadbirkorlik subyektlari soni, moliyalashtirish imkoniyatlari, ayollar bandligi, tadbirkorlikdan olinadigan daromadlar, davlat ko'magining mavjudligi va biznes infratuzilmasi kabi omillarning hududiy natijalarga ta'siri asosiy mezon sifatida qaralgan.

Olingan natijalar ayollar tadbirkorligining rivojlanish darajasi bilan hududning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni tizimli ravishda baholash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: ayollar tadbirkorligi, hududiy rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik, ko'p omilli model, bandlik, tadbirkorlik, iqtisodiy faollik.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль женского предпринимательства в социально-экономическом развитии регионов, а также вопросы определения его влияния на показатели региональной эффективности. Основное внимание в исследовании уделено выявлению значения предпринимательской деятельности, осуществляемой женщинами, в повышении экономической активности, расширении возможностей занятости, создании новых рабочих мест и росте доходов населения.

В ходе исследования факторы, формирующие региональную социально-экономическую эффективность, были сгруппированы с точки зрения их взаимосвязи, а также разработан подход многофакторной оценки на основе показателей, отражающих состояние развития женского предпринимательства. При этом в качестве основных критериев рассматривалось влияние таких факторов, как количество субъектов предпринимательства, доступность финансирования, женская занятость, доходы от предпринимательской деятельности, наличие государственной поддержки и бизнес-инфраструктуры на региональные результаты.

Полученные результаты позволяют системно оценить взаимосвязь между уровнем развития женского предпринимательства и социально-экономическими показателями региона.

Ключевые слова: женское предпринимательство, региональное развитие, социально-экономическая эффективность, многофакторная модель, занятость, предпринимательство, экономическая активность.

Abstract. This article examines the role of female entrepreneurship in the socio-economic development of regions and addresses the issues of determining its impact on regional performance indicators. The primary focus of

the study is directed toward identifying the significance of entrepreneurial activities conducted by women in enhancing economic activity, expanding employment opportunities, creating new jobs, and increasing population incomes.

During the research, the factors shaping regional socio-economic efficiency were grouped from the perspective of their interrelationships, and a multi-factor assessment approach was developed based on indicators characterizing the state of female entrepreneurship development. In this context, the impact of factors such as the number of business entities, financing opportunities, female employment, entrepreneurial income, availability of state support, and business infrastructure on regional outcomes were considered primary criteria.

The obtained results allow for a systematic evaluation of the relationship between the level of female entrepreneurship development and the socio-economic indicators of the region.

Keywords: female entrepreneurship, regional development, socio-economic efficiency, multi-factor model, employment, entrepreneurship, economic activity.

KIRISH

Bugungi kunda hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda mavjud mehnat, moliyaviy va intellektual salohiyatdan samarali foydalanish muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayollar tadbirkorligining kengayishi yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, uy xo‘jaliklari daromadlarining ko‘payishi, xizmatlar va mahsulotlar taklifining diversifikatsiyasi hamda mahalliy iqtisodiy faollikning kuchayishiga xizmat qilishi mumkin.

Ayollar tadbirkorligining hududiy iqtisodiyotga ta’siri faqatgina tadbirkorlik subyektlari soni yoki yaratilgan ish o‘rinlari bilan cheklanmaydi. Ushbu faoliyatning samarasi aholi daromadlari, bandlik darajasi, kambag‘allikni qisqartirish, mehnat unumdorligi, hududiy yalpi mahsulot hajmi, investitsion faollik va ijtimoiy infratuzilmadan foydalanish imkoniyatlari kabi bir qator o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘ladi. Shu sababli ayollar tadbirkorligining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini bitta ko‘rsatkich orqali baholash uning real ta’sirini to‘liq ifodalash imkonini bermaydi.

Mazkur holat ayollar tadbirkorligi va hududiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘p omilli yondashuv asosida tadqiq etishni taqozo etadi. Ko‘p omilli baholash modeli orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik subyektlari soni, ayollar bandligi, kredit resurslaridan foydalanish, investitsiyalar, daromadlar va boshqa iqtisodiy hamda ijtimoiy omillarning yakuniy samaradorlikka ta’sir darajasini aniqlash mumkin. Bunday yondashuv nafaqat mavjud holatni tavsiflash, balki omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni miqdoriy jihatdan aniqlash va hududiy siyosat uchun amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga yo‘naltirilayotgan moliyaviy va institutsional resurslarning hududiy ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga qay darajada ta’sir ko‘rsatayotganini ilmiy asosda baholash zarur. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyati kabi mehnat resurslari salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarda ayollar tadbirkorligining iqtisodiy faollik, bandlik va aholi farovonligiga ta’sirini aniqlash hududiy rivojlanish strategiyalarini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ayollar tadbirkorligining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi o‘rnini o‘rganish iqtisodiy nazariya, tadbirkorlik, mehnat iqtisodiyoti va hududiy rivojlanish yo‘nalishlarining kesishgan nuqtasida shakllangan ilmiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy qarashlar evolyutsiyasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, dastlab tadbirkorlik asosan kapital, innovatsiya va iqtisodiy risk bilan bog‘liq faoliyat sifatida talqin qilingan bo‘lsa, keyingi tadqiqotlarda uning bandlik, ijtimoiy farovonlik va hududiy rivojlanishga ta’siri ham keng o‘rganila boshlandi.

J.B. Say esa tadbirkorlik faoliyatining ishlab chiqarish omillarini birlashtirish va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishdagi ahamiyatiga e’tibor qaratgan.[16] J. Schumpeter tadbirkorlikni innovatsion rivojlanish va iqtisodiy o‘sishning muhim harakatlantiruvchi kuchi sifatida asoslab, yangi mahsulot, texnologiya, bozor va tashkiliy shakllarning paydo bo‘lishini tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘lagan.[17] Ushbu nazariy yondashuvlar ayollar tadbirkorligini ham alohida iqtisodiy resurs va hududiy rivojlanish omili sifatida tadqiq etish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ayollar tadbirkorligiga bag‘ishlangan zamonaviy tadqiqotlarda uning o‘ziga xos institutsional va ijtimoiy jihatlariga alohida e’tibor qaratiladi. S. Carter va E. Shaw ayollar tadbirkorligi bo‘yicha tadqiqotlarda ayollarning biznesga kirib kelishi, moliyaviy resurslardan foydalanishi, biznesning hajmi va rivojlanish imkoniyatlariga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilgan.[18] S. Brush, N. Carter, E. Gatewood, P. Greene va M. Hart tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa ayollar tadbirkorligining rivojlanishiga inson kapitali, ijtimoiy tarmoqlar, moliyaviy imkoniyatlar va institutsional muhitning ta’siri yoritilgan. [19] D. Minniti va M. Lévesque tadqiqotlarida ayollar tadbirkorligining rivojlanishida iqtisodiy imkoniyatlar bilan bir qatorda ijtimoiy va institutsional muhitning roli ham ta’kidlangan.[20] Ularning yondashuvlaridan kelib chiqib, tadbirkorlik faolligini tushuntirishda faqat kredit yoki daromad ko‘rsatkichlariga tayanish yetarli emasligi, balki ta’lim,

[16] Say, J. B. (1803). *A Treatise on Political Economy*. Philadelphia: John Grigg.
[17] Schumpeter, J. A. (1934). *The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
[18] Carter, S., & Shaw, E. (2006). *Women's Business Ownership: Recent Research and Policy Developments*. Report to the Small Business Service, Enterprise Directorate, Department of Trade and Industry (DTI), London.
[19] Brush, C. G., Carter, N. M., Gatewood, E. J., Greene, P. G., & Hart, M. M. (2006). *Growth-Oriented Women Entrepreneurs and Their Businesses: A Global Research Perspective*. Edward Elgar Publishing.
[20] Minniti, M., & Lévesque, M. (2008). Recent developments in the economics of entrepreneurship. *Journal of Business Venturing*, 23(6), 603–612.

mehnat bozori, ijtimoiy kapital, oilaviy sharoit va institutsional qo‘llab-quvvatlash kabi omillarni ham hisobga olish lozimligi namoyon bo‘ladi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda tadbirkorlik va hududiy rivojlanish masalalari A. O‘lmasov, Sh. Shodmonov, Q.X. Abdurahmonov, B.Yu. Xodiyev, A.V. Vahobov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida turli jihatlardan tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarda tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyati, mehnat resurslaridan foydalanish, bandlikni ta’minlash, aholi daromadlarini oshirish va bozor mexanizmlarining amal qilishi kabi masalalarga e’tibor qaratilgan.[21] Mazkur nazariy qarashlar ayollar tadbirkorligining hududiy iqtisodiyotga ta’sirini baholashda umumiy metodologik asos vazifasini bajaradi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning ilmiy yondashuvi mavjud nazariy va empirik ishlardan farqli ravishda ayollar tadbirkorligi rivojlanishini hududiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik bilan bog‘lovchi ko‘p omilli baholash modelini shakllantirishga qaratiladi. Bunda ayollar tadbirkorligi subyektlari soni, ayollar bandligi, kredit va investitsiya resurslari, biznesni qo‘llab-quvvatlash darajasi kabi omillar hamda hududiy iqtisodiy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik usullar yordamida aniqlash imkoniyati yaratiladi. Natijada mavjud adabiyotlarda shakllangan nazariy qarashlar hududiy statistik ma’lumotlar bilan uyg‘unlashtirilib, ayollar tadbirkorligining hududiy rivojlanishga ta’sir mexanizmini miqdoriy baholash uchun metodologik asos yaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ayollar tadbirkorligining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini aniqlash uchun tizimli, kompleks va ko‘p omilli yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasining asosini ayollar tadbirkorligi rivojlanishi bilan hududning iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi sababiy bog‘liqliklarni aniqlash hamda ularni miqdoriy jihatdan baholash tashkil etadi. Tadqiqotning metodologik yondashuvi quyidagi ketma-ketlikda shakllantirildi: birinchidan, ayollar tadbirkorligining hududiy rivojlanishga ta’sirini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlar tizimi shakllantirildi; ikkinchidan, tanlangan ko‘rsatkichlarning vaqt davomida o‘zgarish tendensiyalari tahlil qilindi; uchinchidan, ular o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqliklar aniqlandi; to‘rtinchidan, ko‘p omilli ekonometrik model ishlab chiqildi; beshinchidan, modelning statistik ishonchliligi va amaliy ahamiyati baholandi.

Tadqiqotda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ifodalash uchun yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, aholi jon boshiga daromad, bandlik darajasi va yangi ish o‘rinlari yaratish kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin. Ayollar tadbirkorligi rivojlanishini tavsiflovchi asosiy omillar sifatida ayollarga tegishli tadbirkorlik subyektlari soni, tadbirkor ayollar bandligi, ayollarga ajratilgan kreditlar hajmi, ayollar biznesiga yo‘naltirilgan investitsiyalar va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash darajasi tanlandi.

Tadqiqotda ko‘p omilli regressiya modelidan foydalanish taklif etiladi. Modelning umumiy ko‘rinishi quyidagicha ifodalanadi:

$$Yt=\beta_o+\beta_1X_1+X2t+\beta3X3t+\beta4X4t+\beta5X5t+\varepsilon t$$

bu yerda:

YtY_t — hududiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ifodalovchi natijaviy ko‘rsatkich;

X1X_1 — ayollarga tegishli tadbirkorlik subyektlari soni;

X2X_2 — tadbirkorlik faoliyatida band bo‘lgan ayollar soni yoki ulushi;

X3X_3 — ayollarga ajratilgan kredit resurslari hajmi;

X4X_4 — ayollar tadbirkorligiga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi;

X5X_5 — tadbirkorlikni institutsional qo‘llab-quvvatlash darajasi;

B_o— modelning ozod hadi;

β1,β2,…,β5 — tegishli omillarning natijaviy ko‘rsatkichga ta’sir koeffitsiyentlari;

εt — modelda hisobga olinmagan omillar ta’sirini ifodalovchi tasodifiy xatolik.

Omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni dastlabki baholashda korrelyatsion tahlil qo‘llanadi. Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti yordamida ayollar tadbirkorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar bilan hududiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikning yo‘nalishi va zichligi aniqlanadi. Korrelyatsiya natijalari regressiya modeliga kiritiladigan omillarni tanlash va ular o‘rtasida yuqori darajadagi o‘zaro bog‘liqlik mavjud bo‘lgan holatlarni aniqlash uchun xizmat qiladi.

Ko‘p omilli regressiya natijalarining ishonchliligini baholashda determinatsiya koeffitsiyenti R2, Fisherning F-mezoni va Styudentning t-mezoni qo‘llanadi.[22] R2, koeffitsiyenti natijaviy ko‘rsatkichdagi o‘zgarishlarning qanday qismi modelga kiritilgan omillar orqali izohlanishini ko‘rsatadi. [23] F-mezoni modelning umumiy statistik ahamiyatini, t-mezoni esa alohida omillarning natijaviy ko‘rsatkichga ta’siri statistik jihatdan ahamiyatli yoki ahamiyatsiz ekanligini aniqlash imkonini beradi.[24]

Shuningdek, ekonometrik modelni shakllantirish jarayonida multikollinearlik muammosiga alohida e’tibor qaratiladi. Mustaqil o‘zgaruvchilar o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjud bo‘lsa, regressiya koeffitsiyentlarining barqarorligi pasayishi mumkin. Shu sababli omillarni tanlashda korrelyatsiya matritsasi hamda zarur hollarda VIF (Variance Inflation Factor) ko‘rsatkichidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Vaqt

[21] O‘lmasov, A., & Sharipov, A. (2014). *Iqtisodiyot nazariyasi: darslik*. Toshkent: "Mehnat" nashriyoti. Shodmonov, Sh. Sh., & Xodiyev, B. Yu. (2017). *Iqtisodiyot nazariyasi: darslik*. Toshkent: "Barkamol fayz media" nashriyoti. Abdurahmonov, Q. X. (2019). *Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot (darslik)*. Toshkent: "FAN" nashriyoti. Vahobov, A. V., Malikov, T. S., & Jo‘rayev, A. S. (2020). *Mintaqaviy iqtisodiyot va hududiy rivojlanish masalalari: o‘quv qo‘llanma*. Toshkent: "Iqtisod-Moliya".

[22] Gujarati, D. N., & Porter, D. C. (2009). *Basic Econometrics* (5th ed.). McGraw-Hill/Irwin. *(Klassik va eng mashhur ekonometriya darsligi)*.

[23] Wooldridge, J. M. (2016). *Introductory Econometrics: A Modern Approach* (6th ed.). Cengage Learning. *(Regressiya va gipotezalarni sinash boyicha asosiy qo'llanma)*.

[24] Greene, W. H. (2018). *Econometric Analysis* (8th ed.). Pearson.

qatori ma'lumotlari asosida model tuzilganda qoldiqlarning avtokorrelyatsiyasini aniqlash uchun Durbin–Watson mezonidan foydalanish mumkin.

Tadqiqotda ma'lumotlarning taqqoslanuvchanligini ta'minlash maqsadida bir xil metodologiya asosida shakllantirilgan davriy ko'rsatkichlardan foydalanish nazarda tutiladi.

Metodologik jihatdan tadqiqotning asosiy yangiligi ayollar tadbirkorligini baholashni faqat uning miqdoriy o'sishi bilan cheklamasdan, ushbu faoliyatning hududiy bandlik, daromadlar, ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy natijalar bilan o'zaro bog'liqligini yagona ko'p omilli model doirasida baholashga asoslanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ayollar tadbirkorligining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini aniqlash maqsadida tadqiqotda ayollar tadbirkorligini tavsiflovchi iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish indikatorlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilindi.

Ayollar tadbirkorligining hududiy iqtisodiyotga ta'sirini baholashda alohida ko'rsatkichlarning o'zgarishidan tashqari, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash muhimdir. Shu maqsadda korrelyatsion tahlildan foydalanish ayollar tadbirkorligi ko'rsatkichlari bilan hududiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlik yo'nalishini aniqlash imkonini beradi. Modelda natijaviy ko'rsatkich sifatida hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ifodalovchi indikator, mustaqil o'zgaruvchilar sifatida esa ayollar tadbirkorligi subyektlari soni, tadbirkor ayollar bandligi, kredit resurslari, investitsiyalar va institutsional qo'llab-quvvatlash ko'rsatkichlari olinadi.

Modelning iqtisodiy mazmuni quyidagicha izohlanadi: ayollar tadbirkorligi uchun yaratilgan moliyaviy va institutsional imkoniyatlar kengaygani sari yangi biznes subyektlarining shakllanishi va mavjud korxonalar faoliyatining kengayishi uchun sharoit yuzaga keladi.

1-jadval.

Ayollar tadbirkorligining hududiy samaradorlikka ta'sir mexanizmi[25]

T\r	Omil	Kutilayotgan ta'sir yo'nalishi	Hududiy natija
1.	Ayollarga tegishli biznes subyektlari soni	Ijobiy	Iqtisodiy faollikning oshishi
2.	Tadbirkor ayollar bandligi	Ijobiy	Bandlikning kengayishi
3.	Ayollarga ajratilgan kreditlar	Ijobiy	Biznesni tashkil etish va kengaytirish imkoniyatining oshishi
4.	Ayollar tadbirkorligiga investitsiyalar	Ijobiy	Ishlab chiqarish va xizmatlar hajmining kengayishi
5.	Institutsional qo'llab-quvvatlash	Ijobiy	Biznes muhitining yaxshilanishi
6.	Ta'lim va tadbirkorlik ko'nikmalari	Ijobiy	Biznes samaradorligining oshishi

1-Jadvaldan ko'rinadiki, ayollar tadbirkorligining hududiy samaradorlikka ta'siri bir nechta kanallar orqali shakllanadi. Moliyaviy resurslar tadbirkorlik faoliyatining boshlang'ich va rivojlanish bosqichlarini qo'llab-quvvatlasa, inson kapitali va tadbirkorlik ko'nikmalari ushbu resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini oshiradi. Institutsional qo'llab-quvvatlash esa tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq tashkiliy va ma'muriy to'siqlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Ko'p omilli regressiya modelini baholash natijalarini iqtisodiy jihatdan talqin qilishda regressiya koeffitsiyentlarining ishorasi alohida ahamiyatga ega. Koeffitsiyentning musbat qiymati tegishli omilning oshishi natijaviy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichning o'sishi bilan bog'liqligini, manfiy qiymat esa teskari yo'nalishdagi bog'liqlikni anglatadi. Biroq bunday bog'liqlikni sababiy ta'sir sifatida talqin qilishdan oldin modelning statistik ishonchliligi va boshqa diagnostik mezonlar ham tekshirilishi lozim.

Modelning umumiy sifatini baholashda determinatsiya koeffitsiyenti R^2 asosiy mezonlardan biri sifatida qo'llanadi. Mazkur ko'rsatkich natijaviy o'zgaruvchidagi o'zgarishlarning qancha qismi modelga kiritilgan omillar yordamida izohlanishini ko'rsatadi. Agar R^2qiymati yuqori bo'lsa, tanlangan omillar hududiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikning o'zgarishini tushuntirishda muhim axborotga ega ekanligini anglatadi. Shu bilan birga, yuqori R^2o'zi modelning to'g'ri tuzilganligini anglatmaydi; modelning statistik ahamiyati F-mezoni, individual omillarning ahamiyati esa tt-mezoni orqali qo'shimcha tekshiriladi.

Tahlil natijalari asosida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning hududiy samaradorligini oshirish uchun uchta asosiy yo'nalishni ajratish mumkin: **birinchidan,** ayollar biznesining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish; **ikkinchidan**, tadbirkorlik ko'nikmalari va biznes boshqaruvi bo'yicha amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish; **uchinchidan**, ayollar tadbirkorligi uchun hududiy biznes infratuzilmasini takomillashtirish. Ushbu yo'nalishlarning birgalikda amalga oshirilishi tadbirkorlikning iqtisodiy natijalari bilan uning ijtimoiy

[25] Muallif ishlanmasi

samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirishi mumkin.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari ayollar tadbirkorligini rivojlantirish hududning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Tadqiqotda qo‘llanilgan ko‘p omilli baholash yondashuvi ayollar tadbirkorligi rivojlanishining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy natijalar bilan o‘zaro bog‘liqligini kompleks ravishda o‘rganish imkonini beradi. Bunda ayollar tadbirkorligi subyektlari soni, ayollar bandligi, kredit resurslari, investitsiyalar va institutsional qo‘llab-quvvatlash kabi omillarning hududiy rivojlanish ko‘rsatkichlari bilan bog‘liqligi birgalikda baholanadi.

Tahlil natijalari shuni anglatadiki, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorligi moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hajmi bilan bir qatorda tadbirkorlik muhitining sifati, inson kapitali, biznes ko‘nikmalari, infratuzilma va bozor imkoniyatlariga ham bog‘liq. Shu bois hududlarda ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini shakllantirishda kompleks yondashuvdan foydalanish zarur. Xususan, kredit va investitsiya resurslarini kengaytirish tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim sharti bo‘lsa-da, ushbu resurslardan samarali foydalanish uchun maslahat, ta’lim, marketing, raqamli texnologiyalar va biznes infratuzilmasi bilan bog‘liq xizmatlarni ham rivojlantirish talab etiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, taklif etilgan ko‘p omilli baholash modeli hududlar kesimida ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashda foydalanilishi mumkin. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyatida ayollar tadbirkorligining iqtisodiy va ijtimoiy natijalarini baholashda mazkur model hududiy siyosatni ma’lumotlarga asoslangan holda takomillashtirish uchun analitik vosita vazifasini bajarishi mumkin.

Shundan kelib chiqib, hududlarda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, tadbirkorlik va boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish, biznes infratuzilmasini takomillashtirish, raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan foydalanishni kengaytirish hamda ayollar biznesini mahalliy va tashqi bozorlarga olib chiqish mexanizmlarini kuchaytirishni ajratish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Say, J. B. (1803). A Treatise on Political Economy. Philadelphia: John Grigg.

2 .Schumpeter, J. A. (1934). The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. Cambridge, MA: Harvard University Press.

3. Carter, S., & Shaw, E**.** (2006). Women's Business Ownership: Recent Research and Policy Developments. Report to the Small Business Service, Enterprise Directorate, Department of Trade and Industry (DTI), London.

4. Brush, C. G., Carter, N. M., Gatewood, E. J., Greene, P. G., & Hart, M. M. (2006). Growth-Oriented Women Entrepreneurs and Their Businesses: A Global Research Perspective. Edward Elgar Publishing.

5. Minniti, M., & Lévesque, M. (2008). Recent developments in the economics of entrepreneurship. Journal of Business Venturing, 23(6), 603–612.

6. O‘lmasov, A., & Sharipov, A. (2014). Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. Toshkent: "Mehnat" nashriyoti. Shodmonov, Sh. Sh., & Xodiyev, B. Yu. (2017). Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. Toshkent: "Barkamol fayz media" nashriyoti. Abdurahmonov, Q. X. (2019). Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot (darslik). Toshkent: "FAN" nashriyoti. Vahobov, A. V., Malikov, T. S., & Jo‘rayev, A. S. (2020). Mintaqaviy iqtisodiyot va hududiy rivojlanish masalalari: o‘quv qo‘llanma. Toshkent: "Iqtisod-Moliya".

7. Gujarati, D. N., & Porter, D. C. (2009). Basic Econometrics (5th ed.). McGraw-Hill/Irwin. (Klassik va eng mashhur ekonometriya darsligi).

8. Wooldridge, J. M. (2016). Introductory Econometrics: A Modern Approach (6th ed.). Cengage Learning. (Regressiya va gipotezalarni sinash boyicha asosiy qo'llanma).

9. Greene, W. H. (2018). Econometric Analysis (8th ed.). Pearson.

10.Chikh-Amnache, S., & Mekhzoumi, L. (2023). The Impact of Female Entrepreneurship on Economic Growth in the ASEAN Countries: A Panel MM-QR Approach. *Economics and Business*, 37(1), 37–49. https://doi.org/10.2478/eb-2023-0003.

11.Gawel, A., & Głodowska, A. (2021). On the Relationship between Economic Dynamics and Female Entrepreneurship: Reflections for the Visegrad Countries. *Administrative Sciences*, 11(3), 88. https://doi.org/10.3390/admsci11030088.

12.Huang, Y., Zhang, J., Xu, Y., Yuan, Y., Zhang, M., & Huang, L. (2025). Digital entrepreneurial ecosystem and female entrepreneurial activity. *Humanities and Social Sciences Communications*, 12, 162. https://doi.org/10.1057/s41599-024-04345-y.

URL: [https://stat.uz]

URL: [https://womengender.uz]

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Bekmurodova Saodat Ikromovna Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti Nodavlat ta‘lim muassasasi Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (Phd) / Бекмуродова Саодат Икромовна Негосударственное образовательное учреждение «Университет экономики и педагогики» Доктор философии (PhD) в области экономики / Bekmurodova Saodat Ikromovna Non-State Educational Institution "University of Economics and Pedagogy" Doctor of Philosophy (PhD) in Economics

E-mail: saodatikromovna12@gmail.com

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

t.me/kstu_uz

Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225

www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz